

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2025 Vol. 3

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2025 Vol. 3

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nozliya Normurodova
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Ushenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov
Deputy Editor in Chief: Nozliya Normurodova
Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Ashirboyev S., Aymag'ambet J., Sayfullayev B.

Muhammad Karimxojaning "Turkcha qoida" asarida fe'l formalarining izohlanishi.....6

Kuniyuki Noto

Boshlang'ich darajadagi grammatik qoliplarda yaponcha "iyi" va o'zbekcha "yaxshi"ning qo'llanilishi.....18

Ma'rufjon Dustmurodov

Qari Ćor Tigin bitigidagi yoyi: $t(a)b\gamma(a)\check{c} q(a)n\ yoyl(a)d\ddot{i}$ satri xususida30

Bobir Ashurov

Sud-ekspertiza lingvistikasida uslubiyat va uslublar.....44

Lee Ji-eun, Dilnoza Kalanova

O'zbek tilidagi harflarning koreys yozuvida ifodalanishi.....69

Adabiyotshunoslik

Alimuhtar Muhtarov

Nizami Gencevî ve onun "Mahzanü'l-esrâr" Mesnevisinin İncelenmesi, Konusu ve İdeasi.....81

Shoiraxon Xo'jayeva

Turkiy adiblar ijodida "dunyo" konsepti va uning ma'rifiy talqini95

Tarix. Manbashunoslik

Ziyovutdin Ilhomov

O'zbekistonda tarix fani: XX asr boshlarida jadidlar va ularning tarixiy-ilmiy qarashlari.....108

San'at

Элина Молдокулова

Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации121

CONTENT

Linguistics

Ashirboyev S., Aymag'ambet J., Sayfullayev B.

The Explanation of verb forms in Muhammad Karimhodja's
"Turkish Rule"6

Kuniyuki Noto

The use of Japanese "iyi" and Uzbek "yaxshi" in Beginner-Level
Grammar Patterns18

Ma'rufjon Dustmurodov

On the line "yoyi: *t(a)by(a)č q(a)n yoyl(a)di*" in the inscription
of "Qari Čor Tigin"30

Bobir Ashurov

Methodologies and Methods in Forensic Linguistics.....44

Lee Ji-eun, Dilnoza Kalanova

A Study of Uzbek Letters on the Korean Transcription System.....69

Literature

Almukhtar Mukhtarov

A Study of Nizami Ganjavi and his Methnewi 'Makhzan Al-asrar':
Analysis, Theme and Idea81

Shoirakhon Khujaeva

The Concept of "world" in the works of Turkic authors and its
Enlightenment Interpretation.....95

History. Source studies

Ziyovutdin Ilkhamov

The aspect of History in Uzbekistan: Jadids and their historical-
scientific perspectives in the early XXth century.....108

Art

Elina Moldokulova

Preserving Uzbek Cultural Identity Through Language and
Traditional Costume in the Globalization Era121

Qari Ćor Tigin bitigidagi yoyi : $t(a)by(a)\check{c}$ $q(a)n$ $yoyl(a)d\check{i}$ satri xususida

Ma'rufjon Dustmurodov¹

Abstrakt

Turkiylarning ilk o'rta asrlar tarixiga tegishli yozma manbalari faqatgina ular yashagan yoki hukmronlik qilgan hududlardan topilgan emas. Shunday yozma yodgorliklar borki, ular qo'shni yirik sulolalar markazida tiklangan va hozir ham ushbu tarixiy sulolalar vorisi bo'lgan zamonaviy davlatlar tomonidan muhofaza etiladi. Bu jarayon qadim turkiylarning mazkur g'ayriturkiy siyosiy tuzum, harbiy-siyosiy, ijtimoiy, qolaversa, madaniy sohadagi hayotiga ta'siri, undagi tutgan muhim o'rni bilan izohlanadi. Shunday yodnomalardan biri o'tgan o'n yillikda Sian (Chan'an) shahrida topilgan qabr toshiga o'yib yozilgan, uyg'ur xoqonzodasi Qari Chor Tegin sharafiga ikki tilda: xitoy va turkiy tilda bitilgan dafn bitigidir. Mazkur maqolada ushbu bitigidagi ba'zi istilohlar haqida mulohazalarni ilgari suramiz.

Kalit so'zlar. *Uyg'ur xoqonligi, Qari Chor Tegin bitigi, Chan'an bitigi, epitafiya, turkiy runik yozuv.*

Kirish

Turkiy xalqlarning eng qadimgi bitigtoshlari – bu mazkur xalqlar tarixi, tili va madaniyatini o'rganishda bebaho manba hisoblanadi. O'rxun, Yenisey, Turfan, Oltoy va boshqa hududiy yodgorliklar bitiglarini asosan VI-IX asrlarga mansub bo'lib, ular turkiy xalqlarning davlatchilik an'analari, ma'naviy dunyoqarashi va ijtimoiy, harbiy hayoti haqida boy ma'lumot beradi. Bu yozma yodgorliklar nafaqat tarixiy hujjat sifatida, balki turkiy tilning ilk yozma namunasi sifatida ham katta ahamiyatga ega. Ular orqali turkiy tilning grammatik tuzilishi, so'z boyligi va uslubiy xususiyatlari aniqlanadi. Shuningdek, bitigtoshlar turkiy xalqlarning birlik, vatanparvarlik va erkinlik g'oyalarini yorqin ifoda etgan ma'naviy-madaniy yodgorliklar hamdir. So'nggi yillarda qadimgi turkiy davrga oid yangi topilgan qabr bitiglarini ilmiy adabiyotlarda e'lon qilinib, muhokama qilinishda davom etmoqda. Ana shunday yozuvlardan

¹ *Dustmurodov Ma'rufjon Mansur o'g'li* – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

E-mail: maruf_dust@mail.ru

ORCID: 0009-0003-4954-9504

Iqtibos uchun: Dustmurodov, M. M. 2025. "Qari Ćor Tigin bitigidagi yoyi: $t(a)by(a)\check{c}$ $q(a)n$ $yoyl(a)d\check{i}$ satri xususida". *O'zbekiston: til va madaniyat* 3: 30 – 43.

biri 2012-yilda Sian shahrida topilgan qabr toshiga o'yilgan uyg'ur xoqonzodasi Qari Chor Tegin sharafiga bitilgan dafn yozuvidir. Qabrtoshda bayon qilinish maqsad qilingan fikr ikki tilda: xitoy (o'ng tomonida) va turkiy (chap tomonida) yozilgan. O'n yetti qatordan iborat turkiy matn mohiyatan silsila – nasl-nasabdir. Qadimgi turkiy matnning har bir satri bir yoki ikkita so'zdan iborat bo'lgani uchun ularni yonma-yon yozishda atigi ikki-uch misralik qisqa matn hosil bo'ladi. Mazkur yodnoma 795-yilda vafot etgan va Chan'an (hozirgi Sian) yaqinidagi Chjandyuan hududida dafn etilgan uyg'ur xoqonzodasi Qari Chor Teginning epitafisi ekanligi aniqlangan. Bitig bo'yicha V.Rybatskiy, V.Guosheng, L.Shi, Ch.Alyilmaz, L.Xin, V.Xiaofu, V.Yugui, Ch.Yuqi, X.Xongning maqolalari chop etilgan. Shuningdek, M.O'lmez, T.Zhang, Rybatzki-Vu, E.Ariz-E. Aydin, Z.Liu, M.Borjigiday-B.Anhbayar, T.Hayashi, E.Aydin kabi tadqiqotchilar yodnoma matni ustida u yoki bu darajada izlanish olib borishgan. Aytish kerakki, mazkur bitig bo'yicha salmoqli ishlar Ch.Alyilmazga tegishli¹. Ta'kidlash lozimki, bitigda turkiy tilning tarixiy lug'ati uchun muhim so'zlar mavjud. Bu yodnoma fanga ma'lum qilingan hamonoq turli darajada o'rganilib, bu bo'yicha xulosalar ilmiy adabiyotlarda o'z aksini topmoqda. Lekin mazkur bitig bo'yicha o'zbek filologiyasida hali aytarli ilmiy ishlar chop etilmagan, qolaversa, yodnoma leksikasining o'zbek tiliga munosabati o'rganilmagan. Shuningdek, bitigdagi ma'lumotlarning tarixiy va harbiy jarayonlar taqozosi bilan yatarilganini ham ko'rib chiqish e'tiborga molik.

Asosiy qism

Bir fikrni alohida ta'kidlash lozimki, asrlar silsilasida tarixiy kuchli imperiya yaratgan va madaniy jihatdan boy va qudratli davlatchilikka ega bo'lgan Xitoy qadimdan hududda hal qiluvchi so'zni aytadigan siyosiy uyushmalardan biri bo'lib kelgan. Uning bu qudratida faqatgina yerli tub aholining ishtiroki bo'lgan deyish, adolatsizlik bo'ladi. Xitoy davlatchiligining turli sohalarida turli millat va elat vakillarini ko'rish mumkin edi: Tan sulolasida qo'mondon darajasiga ko'tarilgan asli pekchelik He Chi Chang Chjidan tortib Yuan davridagi o'zbek nozirlargacha. Birgina Suy (581-618) va Tan (618-907) yoki Sun (960-1279) davrida saroy

¹ Alyilmaz Cengiz. "Karı Ćor Tigin Yazıtı". Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi 2/2, 2013. – S. 1-61.; "A reading of the Turkic Inscriptions On Karı Ćor's Epitaph". Tang Yanjiu 19, 443-446.; Shu mallif. "Ćin Halk Cumhuriyeti'ndeki (Kök)Türk Harfli Yazıtılar". Bilgehan Atsız Gökdağ-Saadettin Y. Gömeĉ-Osman Karatay (Yay.): Ortak Türk Tarihi, c. 6, Ankara: Yeni Türkiye Yay., 2019. 221-296.

ichra shimol xalqlaridan turk (uyg'ur, qirg'iz), qitan, jurchen-mohe, quriyaliklargacha bo'lgan elatlar ko'zga tashlanadi. Mazkur etnik vakillar harbiy, siyosiy, idoraviy va ijtimoiy sohadagi eng iqtidorli mansabdorlar bo'lib, ular uchun moddiy va ma'naviy jihatdan barcha sharoitlar to'la-to'kis yaratib berilgan edi. Asli turk (uyg'ur) 19 yoshli yigitcha Qari Chor Tegin ham shunday xalq qahramonlaridan edi. Mamlakatdagi yirik qo'zg'olonni bostirish uchun Uyg'ur xoqoni tomonidan Tang imperatoriga marhamat qilib yuborilgan qo'shin tarikibida borib, o'z navbatida, ushbu isyonni tinchitishda katta jasorat ko'rsatgan va imperator tarafidan qo'mondon darajasiga ko'tarilgan turkiy yigitchaning bevaqt o'limi Tang hukumatini e'tiborsiz qoldirmaydi. Birgina shu ajnabiy qahramon timsolida shimoliy xalqlarning mamlakat rivojidagi katta hissasi bor. Yana bir jihat, imperiya saroyi shaxsning shaxsiy kamoloti va qobiliyatini uning ijtimoiy kelib chiqishidan ustun qo'ya olganida ham edi. Bu, albatta, ikki tomonlama manfaatli aloqalarni rivoj toptirgan. Qari Chor Tegin sharafiga tiklangan shu nomdagi bitig matnini quyida ko'rib o'tamiz.

Yuqorida qayd etganimizdek, bitigdagi ma'lumotlar ikki tilda. Turkiy matn quyidagicha: “(1) bu k(i)m(i)η (2) tis(ä)r · b(ä)zg(ä)k (3) Yayl(a)q(a)r·qan (4) ati : č(a)b(i)š (5) tig(i)n : oylī (6) qan tutuy· (7) atisi: (8) bögü : bil(-) (9) -gä : t(ä)ηri· (10) qan inisi (11) q(a)rī čor (12) tig(i)n sinī (13) yoyī : t(a)by (a)č· (14) q(a)n·yoyl(a)dī· (15) l(a) yzin ·yil· (16) (a)lt(i)nč· ayqa· (17) yiti : yanīqa¹ – (1) Bu kimning (mozori) (2) desa haybatli, (3) Yag'laqarxon (sulolasidan biriga oid) (4) (uning) unvoni chovush (zobitdir) (5) Teginning o'g'li (6) Xon Tutuq(ning) (7) jiyani (8) Bo'gu Bil- (9) -ga Tangri (10) Xonning ukasi (11) Qari Chor (12) Tegin mozori(dir) (13) yog'-o'lim (marosimi) Tabg'ach (Tang Xitoyi) (14) xoni (tomonidan) o'tkazildi (15) cho'chqa yil(ining) (16) oltinchi oy (ining) (17) ettinchi (kunida)”.

Turkiy tildagi matnda bosh obraz Qari Chor Teginning shajarasi bayon qilinib, so'ngda uning dafn vaqti tavsifi beriladi. Qisqa matndagi asosiy so'zlar ot so'z turkumiga tegishli bo'lib, shaxs nomlari, unvon-lavozim va qavm-qarndoshlik otlarini tashkil etadi. Matn 17 qatorli 32, takrorlarsiz 28 so'z, 222 belgidan tashkil topib, tarkib jihatdan quyidagicha turkumlanadi: **otlar (atoqli otlar:** *Yayl(a)q(a)r, Bögü Bilgä T(ä)ηri, Q(a)rī Čor Tig(i)n, T(a)by(a)č;* **turdosh otlar:** unvon-lavozim otlari: *č(a)b(i)š, qan, ati, tutuy;* qavm-

¹ Matn uchun Cengiz Alyılmaz varianti olindi. *Bu uchun qarang:* Cengiz Alyılmaz. Kari Çor Tigin Yaziti'nda Geçen “Bezgek” Sözcüğü Ve Uygurlarin Boy Damgasi Üzerine. Türk Dil Kurumu Yayınları. – Ankara, 2023. 188.

qarndoshlik otlari: *oyli, atisi, inisi*; hayvon otlari: $l(a)yzin$; zamon (payt) otlari: *yil, ay(qa), yan(i)q(a)* (kun); mavhum-holat otlari: $(b(\ddot{a})zg(\ddot{a})k)$, *yoyi*; o'rin-joy otlari: $sin(i)$; **olmoshlar** (ko'rsatish va so'roq): $(bu, k(i)m(i)\eta)$; **fe'llar** $(ti- s(\ddot{a})r, yoyl(a)(di)$; **son** $((a)lt(i)n\check{c}, yiti)$ lardan iborat. Shuningdek, matnda quyidagi grammatik shakllarni ajratish mumkin: **-i**; **-si** –3 shaxs birlik egalik affiksi (*ati: \check{c}(a)b(i)\check{s}; oyli; qan tutuy-atisi.; qan inisi; tig(i)n sini; yoyi*); **-(i)\eta** – qaratqich kelishigi (*bu k(i)m(i)\eta*); **-l(a)** – fe'l yasovchi (*yoyl(a)di*); **-di** – o'tgan zamon (*yoyl(a)di*); **-n\check{c}** – tartib son suffiksi ($((a)lt(i)n\check{c})$); **-qa (qi)** – jo'nalish kelishigi. Kontekstda hozirgi o'zbek tili uchun ham ahamiyatli bo'lgan bir qancha leksik birliklar bor.

Bitigda biz e'tibor qaratishimiz bo'lgan jumla “(13) *yoyi : t(a)by (a)\check{c}*. (14) *q(a)n-yoyl(a)di* – yog'o'lim (marosimi) Tabg'ach (Tang Xitoyi) xoni (tomonidan) o'tkazildi” satri. Ya'ni Qari Chor Teginning dafn qilish bilan bog'liq marosim tasvirini ifodalagan birliklar. Ushbu satrdagi *yoyi* va ushbu so'zdan shakllangan *yoyl(a)di* so'zlarining ma'no va vazifaviy, shuningdek, genetik xususiyatlari diqqatga molik. Avvalo so'zlarning grammatik shakllar chegarasini aniqlab olish lozim. *yoyi* tushunchasi *yoy* – “motam, o'lim marosimi” so'zidan va turkiy tilda denotativ/to'ldiruvchi kelishik yasashda ishlatiladigan *-i* morfemasidan shakllangan. Ikkinchi so'zdagi *yoyi* – ot; $-l(a)$ otdan fe'l yasaydigan qo'shimcha; *-di* o'tgan zamon qo'shimchasi. *yoy* – aza marosimi sifatida turkiylar etnografik tarixida alohida o'ringa ega. Odamlarni birlashtirgan ushbu qayg'u marosimlari marhumning roli va mavqeyiga qarab turlicha bo'lgan.

Qadimgi turkiy hayot va e'tiqod qadriyatlarini hamda marosimlaridan kelib chiqqan holda, yilning ma'lum vaqtlarida o'tkaziladigan bu marosimlarda marhumning qarindoshlari, ular urug'larining avlodlari, shuningdek, qo'shni xalqlar va mamlakatlar a'zolari ishtirok etishgan. “Manbalarda yozilishicha, *yoy* marosimlarida ishtirok etganlar og'riqni baham ko'rish va uni yengillashtirish niyatida maxsus motam tutuvchilar, yig'ichilar ba'zi qimmatbaho marosim sovg'alari, marhumning qabriga o'rnatiladigan toshlar va *yoy* marosimida qatnashuvchilar uchun tayyorlangan motam taomi uchun qoramol va qo'ylarni olib kelishgan” [Alyilmaz 2013, 48]. Qadimgi turkiy yozma hujjatlarda ushbu marosimlar haqida ma'lumot beruvchi jumlar O'rxun-Enisey va boshqa bir qancha turkiy matnlarda ko'zga tashlanadi. Xususan, Kultegin bitigtoshida xoqonlarning dafn marosimi tasvirida ushbu maxsus yig'ichi kasbli toifa – *siyit\check{c}i* bilan birga tilga olinadi “*kärgäk : bolmis: yoyu\check{c}i: siyit\check{c}i: önrä: kün: toyusiqta: Böküli : Čölüg äl: Tabya\check{c}*”

Tüpüt: Apar : Purum: Qırqız: Üč Quriqan: Otuz Tatar: Qıtañ : Tatabi: bunça: bodun: kälipän : siyitamis: yoyulamis: antiy: külüg: qayan: ärmis: anta kisträ: inisi: qayan – ular vafot etdilar. Marosimchilar¹, yig'lovchilar kunchiqardan Bo'kli, cho'llig el, Tabg'ach, Tibet, Avar, Tibet, Rim, Qırqız, Uch-Quriqanlar, O'tuz-tatarlar, Qitan, Tatabi juda ko'p odamlar kelishdi, yig'ladi, marosim o'tkazildi. Shunday mashhur xoqon ekan. Shundan keyin inisi xoqon" (KT, 4).

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, turkiylarda dafn marosimi uchun maxsus ya'ni azachi yig'lovchilarni jalb qilish udumi Islomlashuvdan ham ilgari, qadimdan mavjud bo'lgan. Bu kasb egalari turkiy tilning ilk davrlarida *siyitci* nomi bilan yuritilgan². Hozirgi o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan bu fe'l asli qadimgi turkiy tilda "kuchli nola qil" ma'nosini anglatgan *siy-* fe'lidan [O'TEL I, 291] faoliyat-jarayon ma'nosini anglatuvchi *-it* qo'shimchasini qo'shib yasalgan [DLT I, 338] otga asosdan anglashilgan narsa yoki jarayon bilan shug'ullanuvchi ma'nosini bildiruvchi *-ci* qo'shimchasini qo'shib yasalgan (muallif). O'zbeklarda etnik munosabatlardagi qo'ni-qo'shnicilik tilida ham o'z aksini topib, *siyitci* so'zining o'rnini fors-tojikcha *giyranda* (giryon – "yig'lovchi"dan) so'zi egalladi: "*Giyranda kulib yig'lar, Toy bersang, erib yig'lar*".

Umuman olganda, mazkur kasb sohiblari tarixda turkiy xalqlar motam marosimlarining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Xususan, "*Bir pul berib yig'latdim, ming pul berib yupatdim*" yoki "*Bir qop berib siqtatdim, o'n qop berib to'xtatdim*" kabi iboralar shu jarayonlar bag'rida shakllangan. Qari Chor Tegin Xitoyda (Tabg'ach) da vafot etgani uchun imperator *yoy* motam marosimini uning o'limidan taxminan bir oy o'tgach o'tkazgan. *yoy* marosimi hatto ular o'z vatanlaridan tashqarida vafot etgan taqdirda ham o'tkazilishi bu marosimlarning turkiy qabilalar va jamoalar uchun muhimligini ko'rsatadi. Tang imperatori turklarning turmush tarzi va e'tiqodlarini hurmat qilgani va Qari Chor Tegin nomi bilan *yoy* marosimini tashkil qilgani juda muhimdir. Bitigning xitoycha qismiga ko'ra Qari Chor Teginning akasi, yaqin qarindoshlari va

¹ QTTda *azachi*. Bu uchun qarang: Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Т.: Ўқитувчи, 1982.

² Shuningdek, *sig'indi* (*yig'lab nola qildi: Tangriga sig'indi*, DLT II, 177), *yig'i-sig'i, siqta(sh)*- ("yig'la(sh)moq" (DLT II, 245; III 291] (bu *siy*-fe'lidan *-it* qo'shimchasi bilan yasalgan otga *-a* qo'shimchasini qo'shib yasalgan; keyinchalik ikkinchi bo'g'indagi unli talaffuz qilinmay qo'yilgan, *t* undoshi ta'sirida *γ* undoshi *q* ga almashgan (KRS, 678); o'zbek tilida *a* unlisi *ä* ga almashgan, *i* unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: *siyita* > *siyta* > *siqta* > *siqta* [O'TEL I, 291], *sig'it* (ayn. *yig'i* DLT I, 338) kabi so'zlar ham aynan shu o'zakdan shakllangan.

qabila vakillari bu marosimda ishtirok etishgan. Bu, o'z navbatida, yuqoridagi Kultegin bitigidagi tasvirni eslatib, qadimgi turkiylarning o'zaro qarindoshlik jihatdan ittifoqchiligi, qolaversa, ularning tarixiy va qadriy an'analarga sodiqligini yaqqol ko'rsatadi.

Qayd etish kerakki, matnlarda *yoy* yakka holda "aza, marosim" ma'nosida, turli qo'shimchalar bilan kelganda esa, ushbu marosim bilan bog'liq kasb-kor, faoliyat-jarayonni anglatib kelavergan. Bu quyidagi misollarda ko'zga tashlanadi: "*qatun : yoy bolmıs erti : anı yoyılatıjın tıdi* – (malika) xotini vafot etdi, "men uning dafn marosimini o'tkazmoqchiman" dedi (To'n, 31); "*yoylatı : bädizin : bädizti : olurtı* – dafn marosimi o'tdi, yodgorliklar o'rnatildi" (KCh, 24); "*yoyım : anĉa ärmiš adirildim* – shuning uchun men motam tutaman. Men ayrildim" (E-25, 7); "*Qadašim ärän : änläjü : yoyladıñ* – qarindoshlarim qahramon uchun motam tutishdi" (E-42, 3). Ushbu lekema keyingi davrlarda ham qadimgi turkiy tildagi ma'nosini yo'qotmagan. "Qutadg'u bilig"da *yoy* – "xotirlash marosimi" va *joduy* – "musibat, balo, ofat, olov" shakl va ma'nolarida tilga olinadi: "*Törü suv tög ol küč kör ot tög* – Adolat(li siyosat) suv kabi kuchli, zulm esa o'tdek ofatdir" [QBN, 228₁₃; QBN, 3068]; "*Bu Aj Toldiniñ qildi oyli joyı*– Bu Oyto'ldining o'g'li uning xotirlash marosimini qildi" [QBK, 732]. Mahmud Koshg'ariy lug'atida *yoy* bilan bog'liq marosim haqida to'xtalinadi: *yoy* – dafn etilganidan keyin uch kundan yetti kungacha beriladigan oziq-ovqat. "*ol ölüggä yoyladı* – u odam chaqirib, o'lik uchun taom berdi". Bu turklarning urf-odati [DLT III, 324]. *yoy* va undan shakllangan so'zlar DTCda ham ayni yuqoridagi ma'nolarda izohlangan, lekin qadimgi turkiy tildagi *yoyuĉi* shakli *yoyĉi* ko'rinishida beriladi [DTS, 1969, 269-270]. Shu o'rinda *yoy* bilan DLTdagi izohga jiddiy e'tibor berilganda ushbu so'zning etimologiyasi oydinlashgandek ko'rinadi. Ya'ni, *ol ölüggä yoyladı* – u odam chaqirib, o'lik uchun taom berdi" gapini "u odam chaqirib, o'likni xotirladi, yo'qladi" shaklida ham tushunish mumkin. Bunda Qari Chor Tegin va boshqa yodnomalarda tilga olingan *yoyla-* fe'lini "yo'qlash, xotirlash va shu bilan bog'liq har qanday marosimni o'tkazish" deb tushunilganda uning asosi bo'lgan *yoy* turkiy *yöq* so'zi bilan bevosita aloqador bo'lishi mumkin. *yöq* so'zi qadimgi turkiy tilda "mavjud emas" ma'nosini anglatib, asli *yo:q* tarzida talaffuz qilingan [ЭСТЯа, IV, 212; ДТС, 273] va keyinroq *o:* unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan [ПДП, 289; DLT, III, 157; ДТС, 272]: *yo:q* > *yoq*. Ko'rish mumkinki, oxirgi undoshni hisobga olmaganda *yoy* turkiy *yoq* so'zlari ayni shaklda ko'rilmogda. Darhaqiqat, inkor ma'nosini anglatuvchi *yoq* so'zi asli "yo'q qil-",

“yemir-“ ma'nosidagi *yo:-* fe'lidan *-q* qo'shimchasi bilan yasalgan [ЭСТЯ, IV, 212]: *yo:- + q = yo:q > yoq* [O'TEL, I, 196]. Qadimgi turkiy tildagi *yoyla-* fe'lining “o'lgan kishini xotirlash marosimi” ma'nosini anglatgan *yoy* otidan [DTS, 269] *-la* qo'shimchasi bilan yasalib, [O'TEL, I, 196] “o'lgan kishiga atab xotirlash marosimi o'tkaz-, xotirla-” ma'nosi [DLT, III, 324; DTS, 270] hamda qadimgi turkiy tildagi *yöqla-* fe'lining “mavjud emas” ma'nosini anglatgan *yoq-* so'zidan *-la* qo'shimchasi bilan yasalgani [KPC, 257] va “biror munosabat bilan so'ramoq, esga olmoq” ma'nosini o'zaro solishtirilganda *yoyla-* va *yöqla-* fe'llarining asosi bir so'zdan hosilalangani yanada oydinlashadi. Xullas, qadimgi turkiy qabilalar orasida marhumni barcha jihatlari bilan xotirlash uchun marosim o'tkazilgan. Bu harakat *yoyla* – “yo'qla-” deb nomlangan”. Bugungi kunda ham xuddi shunday an'ana turkiy dunyoning ko'plab mintaqalarida davom etmoqda. “Chodirlar tikiladi va dafn etilganidan keyin turli ramziy raqam bilan belgilangan kunlarda taomlar tortiladi, kambag'allarga, muhtojlarga, masjid va madrasalarga xayr-ehsonlar qilinadi” [Cengiz Alyilmaz 2013, 48-49].

Shu o'rinda dafn marosimining Tabg'ach (Xitoy) imperatori tomonidan o'tkazilgani ham qayd etilgan: “(13) *yoyi : t(a)by(a)č·* (14) *q(a)n·yoyl(a)di* – azasi (marosimi) Tabg'ach (Tang Xitoyi) xoni (tomonidan) o'tkazildi”. Aytib o'tish kerakki, *t(a)by(a)č* so'zi qadimgi turkiy davrga oid asarlarda Xitoy ma'nosida ishlatilgan. Qari Chor Tegin yozuvida xuddi shu ma'noda ishlatilgan *t(a)by(a)č q(a)n* o'sha davrdagi Tang imperatori Daizong (780-805)ni anglatadi, u Qari Chor Tegin nomiga monumental maqbara qurdirgan, yozuv tayyorlagan va marosimni o'tkazgan. Bitigning 15-17-satrlarida *yoy* – marosimning o'tkazilgan vaqti haqida ma'lumot berilgan: “(15) *l(a) yzin ·yil·* (16) *(a)lt(i)nč· ayqa·* (17) *yiti : yanıqqa* – cho'chqa yil(ining) oltinchi oy (ining) yettinchi (kunida)”. Bu Teginning monumental qabri, yozuvi va marosimi o'tkazilgan sana, cho'chqa yili 795-yilga to'g'ri kelgan. Yozuvning ikkinchi qismida qabr va marosim bo'lib o'tgan oy haqida xabar beriladi. (16) *(a)lt(i)nč ayqa*: Bundagi *(a)lt* – sanoq son; *-(i)nč* tartib sifat hosil qiluvchi qo'shimcha; *ay* – o'n ikki oydan biri (iyun); *-qa* – turkiy tilda jo'nalish kelishigi: “oyga”. Bu erda u “vaqtda bo'lish holati”ni ifodalagan. Keyin *yoy* marosimi kuni (cho'chqa yilining oltinchi oyining yettinchi kuni) ko'rsatilgan: “*yiti : yanıqqa*”. Undagi *yiti* – yetti raqami; *yanı* – kun; *-qa* – turkiy tilda jo'nalish kelishigi: “kunga”. Qari Chor Tegin yozuvida qo'llanilgan xronologik usul xitoycha xronologik usulga o'xshashligi va berilgan sanalar to'liq bir-biriga

mos kelishi kuzatiladi. Bu muhim, chunki u turkiy qabilalarning tarixiy xronologik xabardorlikka ega ekanligini va xitoylik ma'murlar turkiy qabilalar amal qilgan xronologik tizimni yaxshi bilishganligini ko'rsatadi [Alyilmaz 2013, 51]. Shuningdek, Turkiy xoqonliklar hududidagi bir qancha bitiglarining yaratilishida xitoylik mahoratli hunarmand va naqqoshlarning ishtirokini eslatib o'tish zarur. Jumladan, To'nyuquq bitigtoshida qabrtoshni naqshlar bilan bezash uchun Tabg'achdan ustalar yuborilgani aytiladi: "*Tabyać qayanñ içrāki bādizćig it(t)ī* – Tabg'ach xoqonning ichki naqqoshini yubordi" (To'n, 12). Bu xitoyliklar naqqoshlar va yalavochlarning turkiy etnografik udumlar, qabrtoshlar tiklash qoidalari, an'ana va tamoyillari, qolversa, turkiylarning zamon va makon haqidagi o'lchovlaridan juda yaxshi xabardor bo'lganini ko'rsatadi.

t(a)by (a)ć. (14) q(a)n tarkibidagi *qan* so'zi imperatorga ishora qilmoqda. Ushbu so'zning Qari Cho'r Tegin bitigining to'rt o'rinda kelishi va uning Yag'laqarlar sulolasaning turli a'zolariga ham ishlatilish holati e'tiborga molik. G'arbiy xunlar davridan beri ishlatilib kelingan va turkiylarda eng oliy harbiy-ma'muriy unvonlar qatorida ko'rilgan ushbu leksema *Yayl(a)q(a)rqañ, qan tutuy, bögü bilgä t(äñ)ri qan* nomlari tarkibida keladi. Aytish lozimki, *Yayl(a)q(a)rqañ* Uyg'ur xoqonligi (744-840) hukmdorlari, umuman, sulola nomidir. Qadimgi turkiy xoqonliklar, xususan, I va II Turk xoqonliklari (552-744) davrida hukmdorga nisbatan asosan *qayan* unvoni (ba'zi o'rinlarda *qan* ham faol ko'zga tashlanadi) ishlatilgan holda Uyg'ur xoqonligiga oid yozma yodgorliklarda oliy hukmdorga nisbatan asosan *qan* unvoni ishlatilib, u ayrim o'rinlarda *qayan* darajasiga tenglashtirilgan. Kul Tegin, Bilga Xoqon matnlarida turk hukmdorlari uchun faqat *qayan* unvoni ishlatilgan: "*öl töruda öza äćim qayan ölurti*" (KT, 16). To'nyuquq bitigida yuqoridagi ikki bitigdan farqli o'laroq turk, shuningdek, qirg'iz hukmdori uchun *qan* istilohi ishlatilgan. To'nyuquq bitigiga ko'ra ko'k turklarga bo'ysungan qirg'izlarning hukmdorlari ham muayyan o'rinlarda *qayan* (To'n, 20) va *qan* (To'n, 28) deb atalgan. Taryat yozuvida Uyg'ur xoqonligining so'nggi xoqoni *Özmiš qayan* emas, *Özmišqan* tarzida tilga olingan [Saffet Yilmaz 2018, 276]. Shuningdek, qoraxoniylar, qipchoqlar va qimaqlarning boshliqlari ham *qan* deb ham yuritilgan [László F 1944, 39]. Shuningdek, ayrim o'rinlarda keyingi davr turk davlatlarida *qan* (*xon*) va *qayan* (*xoqon*) istilohlarining teng ishlatilishini ko'rish mumkin. Ta'kidlash kerakki, hukmdorlar rasmiy ravishda

saltnatdan tashqarida yoki tarixchilar solnomalarida *xon*, saroy ichidagi oliy hukmdorga qilingan murojaatlarda esa *xoqon* ishlatilgani holatlari ko'p uchraydi. E'tiborli jihati, Qari Cho'r Tegin bitigida Xitoy imperatoriga nisbatan ham *qan* ishlatilgan. Shu o'rinda To'nyuquqda quyidagi satrlar mavjudligini qayd etish lozim: "*Tānri anča tāmiš ārinč qan bārtim qaniñin qodup içikdiñ*" (To'n, 2-3). Ushbu gapdagi yaratguvchi – Tangri tilidan aytilgan "*qan bārtim*" birikmasidan "xon"ga "xoqon" kabi Tangrining yerdagi xohish-irodasini ifodachisi sifatida qaralgani kuzatiladi. Bundan *qan* ham *qayan* kabi qadimgi turkiylar tomonidan ilohiylashtirilgan degan xulosaga kelinadi. Aytish mumkinki, xitoylik bitigchi va naqqoshlar *qanning* turkiylardagi ma'no ko'lamini bilgani holda Qari Cho'r Tegin yodnomasining turkiycha qismida imperatorga nisbatan ham *qan* unvonini ishlatishgan, chunki Xitoyda ham imperator Xudo – osmonning yerdagi vakili deb tushunilgan. Bu o'rinda *qan* imperator bilan teng maqomda ko'rilgan.

Xulosa

Qari Chor Tegin bitigi qisqa matn bo'lsa-da, jiddiy tadqiq qilinganda muhim ilmiy ahamiyatga egaligi anglashiladi. Xitoy hududidan topilgan qadimgi turkiycha yodgorliklar turkiy xalqlar tarixi, tili va madaniyatini o'rganishda muhim manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu manbalar turkiy xalqlarning davlatchilik an'analari, ijtimoiy munosabatlari, diniy qarashlari hamda yozuv madaniyatining yuqori darajada rivojlanganligini tasdiqlaydi. Turfan, Dunxuan kabi hududlardan topilgan qo'lyozmalar turkiylarning ushbu hududlardagi siyosiy tuzumi yoki harbiy harakatlari bilan izohlansa, markazida yaratilgan va hozirda ham o'sha yerda saqlanayotgan manbalar turkiy xalqlarning qadimdan qo'shbi sulolalar, xususan, Xitoydagi etno-siyosiy va harbiy jarayonlarda faol ishtirok etganini ko'rsatadi. Qolaversa, bu ularning Xitoy madaniyati bilan o'zaro ta'sirchan munosabatda bo'lganini ko'rsatib, Sharq sivilizatsiyasi tarixida turkiy omilning faol ishtirokini namoyon etadi. Shu nuqtayi nazardan, Xitoydan topilgan turkiy yozma yodgorliklar nafaqat tilshunoslik, balki tarix, manbashunoslik va madaniyatshunoslik sohalari uchun ham muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi. Ular turkiy xalqlar sivilizatsiyasining ilmiy tadqiqi va tarixiy merosini tiklashda beqiyos ahamiyatga ega manbalardir.

Qisqartmalar

OʻTEL – *Oʻzbek tilining etimologik lugʻati*. 2000. I tom. Toshkent.

OʻTIL – *Oʻzbek tilining izohli lugʻati*. 2007. V tomlik. Toshkent.

OʻXShL – *Oʻzbek xalq shevalari lugʻati*. 1971. Toshkent.

DLT – *Devonu lugʻotit turk*. 1960-1967. Toshkent.

ДТС – *Древне тюркский словарь*. 1069. Ленинград.

ЎТТ – *Қадимги туркий тил*. Абдурахмонов Ғ., Рустамов. 1982. Тошкент: Ўқитувчи.

КРС – *Киргизско-русский словарь*. 1965. Москва.

ПДП – *Памятники древнетюркской письменности*. 1951. М. –Л.

Adabiyotlar

Абдурахмонов, Ғ., Рустамов, А. 1982. *Қадимги туркий тил*. Тошкент: Ўқитувчи.

Ariz Erkin-Erhan Aydın. 2014. “Henzuçe-Qedimki Türkçe “Karı Ćor Tekin Qebre Teşi” Üstide Yengi Tetkikat”. *Şincang Üniversitesi İlmîy Jurnili* 35 (2): 65 – 79.

Ariz Erkin-Erhan Aydın. 2014. “Xi’an Yazıtı Üzerinde Yeni Okuma ve Anlamlandırılmalar”. *Bilig* 71: 65 – 80.

Ariz Erkin-Erhan Aydın. 2014. Qedimki Türk Yeziqidiki Taş Pütükler. Ürümçi: Şincang Helq Neşriyati.

Aydın Erhan. 2016. “Tariat ve Xi’an (Karı Ćor Tegin) Yazıtları Işığında sını “mezar” Sözcüğü Üzerine”. *Türk Dili Araştırmaları Yıllığı Belleten* 61(2): 161 – 166.

Aydın Erhan. 2017. “Uygur Kağanı Moyan Ćor’un Oğullarına Mirası”. *Gazi Türkiyat* 20: 1 – 7.

Aydın Erhan. 2020. “Yaglakar” Adı ve Karı Ćor Tegin Yazıtındaki “Karı” Sözcüğünün Anlamı Üzerine”. *Uluslararası Türk Dili ve Edebiyatı Araştırmaları Dergisi* 9 (23): 146 – 154.

Aydın Erhan. 2020. “Yaglakar” Adı ve Karı Ćor Tegin Yazıtındaki “Karı” Sözcüğünün Anlamı Üzerine”. *Dede Korkut Uluslararası Türk Dili ve Edebiyatı Araştırmaları Dergisi* 9(23): 146 – 154.

Aydın Erhan. 2018. *Uygur Yazıtları*. İstanbul: Bilge Kültür Sanat Yay.

Бобоёров, Ғ. 2018. *Ғарбий Турк хоқонлиги давлат тузуми*. Тошкент: Янги нашр.

Borjigiday M. & B. Anhbayar. 2015. “Hariĉor teginiy bunhni biçees hiygeed Uygurın Yaklagar ovogtnı doroytol”. *Ertniy Türegiyn Tüüh Soyel. Olon ulsın Erdem Şinjilgeeniy Hurlın Emhettel. Ulaanbaatar* 5 – 17.

Дадабаев, Х. 1991. *Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI – XIV вв.* Ташкент.

Hayashi Toshio. 2016. “Epitaph of an Uighur Prince found in Xi’an”. *Türk Dili Araştırmaları Yıllığı Belleten* 61(2): 209 – 214.

- Cengiz Alyılmaz. 2014. "A reading of the Turkic Inscriptions On Kari Çor's Epitaph". *Tang Yanjiu* 19, 443 – 446.
- Cengiz Alyılmaz. 2019. "Çin Halk Cumhuriyeti'ndeki (Kök) Türk Harfli Yazıtlar". Bilgehan Atsız Gökdağ-Saadettin Y. Gömeç-Osman Karatay (Yay.): Ortak Türk Tarihi, c. 6, Ankara: Yeni Türkiye Yay. 221 – 296.
- Cengiz Alyılmaz. 2013. "Kari Çor Tigin Yazıtı". *Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi* 2: 2, 1 – 61.
- Cengiz Alyılmaz. 2013. "Kari Çor Tigin Yazıtı". *Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi Sayı 2(2)*: 48 – 49.
- Cengiz Alyılmaz. 2023. "Kari Çor Tigin Yazıtı'nda Geçen "Bezgek" Sözcüğü Ve Uygurların Boy Damgasi Üzerine". *Türk Dil Kurumu Yayınları*, 188. Ankara.
- Камалов, А.К. 2024. "Китайско-тюркская эпитафия из Чанъани". *Qazaq Historical Review* 2. 4. 449 – 460.
- Dustmurodov, M. 2023. *O'rxun-Yenisey bitigtoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi*. Filol. fan. bo'yicha falsafa dok. diss. Toshkent.
- Klyashtorny, S. 2010. *Runic monuments of the Uyghur Khaganate and the history of the Eurasian steppes*. Петербургское востоковедение.
- Lászlo, F. 1944. *Kagan ve Ailesi, Türk Hukuk Tarihi Dergisi*, I. Ankara.
- Liu Zhe. 2014. "Huihu ge chuai wangzi chushen kao". *Tangshan shifan xueyuan xuebao* 36(3): 73 – 75.
- Luo Xin. 2013. "Kari Çor Tigin Yazıtının Çincesi ve Kari Çor Tigin'in Şeceresi". *Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi* 2(2): 62 – 78.
- Ölmez, M. 2018. Uygur hakanlığı yazıtları. 200 – 210. Ankara: BilgeSU.
- Ölmez Mehmet. 2013. *Orhon-Uygur Hanlığı Dönemi Moğolistan'daki Eski Türk Yazıtları, Metin-Çeviri-Sözlük*. Ankara: BilgeSu Yay.
- Rybatzki Volker-Wu Kuosheng. 2014. "An Old Turkic Epitaph in Runic Script from Xi'an (China): The Epitaph of Qari çor tegin". *Zeitschrift der Deutschen Morgenländischen Gesellschaft* 164(1): 115 – 128.
- Rybatzki Volker-Wu Kuosheng. 2013. "Xi'an xin faxian Tangdai Gechuo Wangzi gu Tujue luniwen muzhi zhi jiedu yanjiu". *Tang Yanjiu* 19: 419 – 435.
- Saffet, Y. 2018. "Eski Türk Runik Harfli Metinlerdeki Askeri ve Siyasi Terimler ile Unvan Niteleyicilerin Özbek Türkçesindeki İzleri". *International Journal of Humanities and Education*, 260 – 296.
- Zhang Tieshan. 2013. "Study of a recently discovered Runic epitaph from Xi'an". Hatice Şirin User-Bülent Gül (Yay.): *Yalın Kaya Bitigi. Osman Fikri Sertkaya Armağanı*. 665 – 671. Ankara: TKAE Yay.

On the line “yoyi: t(a)by(a)ć q(a)n yoyl(a)di” in the inscription of “Qari Ćor Tigin”

Ma’rufjon Dustmurodov¹

Abstract

The written sources of the early medieval history of the Turks were not found only in the territories where they lived or ruled. There are such written monuments that were restored in the centers of neighboring major dynasties and are still protected by modern states that are the successors of these historical dynasties. This process is explained by the influence of the ancient Turks on the life of these non-Turkic political systems in the military-political, social and cultural spheres and the important role they played in it. One of such monuments is a funerary inscription in Chinese and Turkic in honor of the Uyghur Khaganate Qari Chor Tegin, carved on a tombstone found in the city of Xi'an (Chan'an) in the past decade. In this article, we will put forward some considerations about some of the terms in this inscription.

Key words. *Uyghur Khaganate, Qari Chor Tegin Inscription, Chan'an Inscription, epitaph, Turkic runic inscription.*

Literature

- Abdurahmonov, G., Rustamov, A. 1982. *Qadimgi turkiy til*. Toshkent: O'qituvchi.
- Ariz Erkin-Erhan Aydın. 2014. “Henzuće-Qedimki Türkçe “Karı Ćor Tekin Qebre Teři” Üstide Yengi Tetkikat”. *Şincang Üniversitesi İlmîy Jurnili* 35 (2): 65 – 79.
- Ariz Erkin-Erhan Aydın. 2014. “Xi'an Yazıtı Üzerinde Yeni Okuma ve Anlamlandırılmalar”. *Bilig* 71: 65 – 80.
- Ariz Erkin-Erhan Aydın. 2014. Qedimki Türk Yeziqidiki Taş Pütükler. Ürümçi: Şincang Helq Neşriyati.
- Aydın Erhan. 2016. “Tariat ve Xi'an (Karı Ćor Tegin) Yazıtları Işığında sını “mezar” Sözcüğü Üzerine”. *Türk Dili Araştırmaları Yıllığı Belleten* 61(2): 161 – 166.
- Aydın Erhan. 2017. “Uygur Kağani Moyan Ćor'un Oğullarına Mirası”. *Gazi Türkiyat* 20: 1 – 7.

¹ *Ma'rufjon M. Dustmurodov* – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor.

E-mail: maruf_dust@mail.ru

ORCID: 0009-0003-4954-9504

For citation: Dustmurodov, M. M. 2025. “On the line “yoyi: t(a)by(a)ć q(a)n yoyl(a)di” in the inscription of “Qari Ćor Tigin”. *Uzbekistan: Language and Culture* 3: 30 – 43.

- Aydin Erhan. 2020. "Yaglakar" Adı ve Karı Çor Tegin Yazıtındaki "Karı" Sözcüğünün Anlamı Üzerine". *Uluslararası Türk Dili ve Edebiyatı Araştırmaları Dergisi* 9 (23): 146 – 154.
- Aydin Erhan. 2020. "Yaglakar" Adı ve Karı Çor Tegin Yazıtındaki "Karı" Sözcüğünün Anlamı Üzerine". *Dede Korkut Uluslararası Türk Dili ve Edebiyatı Araştırmaları Dergisi* 9(23): 146 – 154.
- Aydin Erhan. 2018. *Uygur Yazıtları*. İstanbul: Bilge Kültür Sanat Yay.
- Boboyorov, G'. 2018. *G'arbiy Turk xoqonligi davlat tuzumi*. Toshkent: Yangi nashr.
- Borjigiday M. & B. Anhbayar. 2015. "Hariçor teginiy bunhni biçees hiygeed Uygurun Yaklagar ovogtnı doroytol". *Ertniy Türegiyn Tüüh Soyel. Olon ulsın Erdem Şinjilgeeniy Hurlın Emhettel. Ulaanbaatar* 5 – 17.
- Dadabaev, X. 1991. *Obshestvenno-politicheskaya i sotsialno-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazichnix pismennix pamyatnikax XI – XIV vv.* Tashkent.
- Hayashi Toshio. 2016. "Epitaph of an Uighur Prince found in Xi'an". *Türk Dili Araştırmaları Yıllığı Belleten* 61(2): 209 – 214.
- Cengiz Alyılmaz. 2014. "A reading of the Turkic Inscriptions On Karı Çor's Epitaph". *Tang Yanjiu* 19, 443 – 446.
- Cengiz Alyılmaz. 2019. "Çin Halk Cumhuriyeti'ndeki (Kök) Türk Harfli Yazıtlar". Bilgehan Atsız Gökdağ-Saadettin Y. Gömeç-Osman Karatay (Yay.): Ortak Türk Tarihi, c. 6, Ankara: Yeni Türkiye Yay. 221 – 296.
- Cengiz Alyılmaz. 2013. "Karı Çor Tigin Yazıtı". *Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi* 2: 2, 1 – 61.
- Cengiz Alyılmaz. 2013. "Kari Çor Tigin Yazıtı". *Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi Sayı* 2(2): 48 – 49.
- Cengiz Alyılmaz. 2023. "Kari Çor Tigin Yazıtı'nda Geçen "Bezgek" Sözcüğü Ve Uygurların Boy Damgası Üzerine". *Türk Dil Kurumu Yayınları*, 188. Ankara.
- Kamalov, A.K. 2024. "Kitaysko-tyurkskaya epitafiya iz Chan'ani". *Qazaq Historical Review* 2(4): 449 – 460.
- Dustmurodov, M. 2023. *O'rxun-Yenisey bitigtoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi*. Filol. fan. bo'yicha falsafa dok. diss. Toshkent.
- Klyashtorny, S. 2010. *Runic monuments of the Uyghur Khaganate and the history of the Eurasian steppes*. Peterburgskoe vostokovedenie.
- Lászlo, F. 1944. *Kagan ve Ailesi, Türk Hukuk Tarihi Dergisi*, I. Ankara.
- Liu Zhe. 2014. "Huihu ge chuai wangzi chushen kao". *Tangshan shifan xueyuan xuebao* 36(3): 73 – 75.
- Luo Xin. 2013. "Karı Çor Tigin Yazıtının Çincesi ve Karı Çor Tigin'in Şeceresi". *Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi* 2(2): 62 – 78.

- Ölmez, M. 2018. Uygur hakanligi yazitlati. 200 – 210. Ankara: BilgeSU.
- Ölmez Mehmet. 2013. *Orhon-Uygur Hanlıđı Dönemi Mođolistan'daki Eski Türk Yazitları, Metin-Ćeviri-Sözlük*. Ankara: BilgeSu Yay.
- Rybatzki Volker-Wu Kuosheng. 2014. "An Old Turkic Epitaph in Runic Script from Xi'an (China): The Epitaph of Qari ĉor tegin". *Zeitschrift der Deutschen Morgenländischen Gesellschaft* 164(1): 115 – 128.
- Rybatzki Volker-Wu Kuosheng. 2013. "Xi'an xin faxian Tangdai Gechuo Wangzi gu Tujue luniwen muzhi zhi jiedu yanjiu". *Tang Yanjiu* 19: 419 – 435.
- Saffet, Y. 2018. "Eski Türk Runik Harfli Metinlerdeki Askeri ve Siyasi Terimler ile Unvan Niteleyicilerin Özbek Türkĉesindeki İzleri". *International Journal of Humanities and Education*, 260 – 296.
- Zhang Tieshan. 2013. "Study of a recently discovered Runic epitaph from Xi'an". Hatice Őirin User-Bülent Gül (Yay.): *Yalım Kaya Bitigi. Osman Fikri Sertkaya Armađanı*. 665 – 671. Ankara: TKAE Yay.